

## “HUMANS VISA kartasi orqali xaridlar uchun 1% Keshbek qo‘shib berish” Aksiyasi Qoidalari (yangi tahrir)

03 mart 2025 y.

Aksiya to‘g‘risida ma‘lumot HUMANS VISA kartasi orqali xarid qilish uchun 1% Keshbek qo‘shib berish aksiyasi (keyinchalik – Aksiya deb yuritiladi) “Humans” mas‘uliyati cheklangan Jamiyat, manzili 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mahtumquli ko‘chasi, 2 B-uy, INN 306624856 (Humans), tomonidan Humans Sodiqlik Dasturi doirasida o‘tkazilmoqda.

### 1. Aksiya to‘g‘risida ma‘lumot

1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so‘zlar atamalardir. Atamalarning ta‘rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, Humans kompaniyasining “Mahsulotlar va xizmatlar Vitinasi” xizmat ko‘rsatish Qoidalari va [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan HUMANS sodiqlik dasturi Qoidalari keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — Humans bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatishga Shartnomasini, shuningdek “Ravnaq-bank” AJ bilan Humansga moliyaviy xizmat ko‘rsatish to‘grisidagi shartnomani tuzgan va shu hujjat asosida Ishtirokchiga Humans Visa bank kartasi chiqarilgan hamda mazkur Qoidaning 2-bo‘limida qayd etilgan haarakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslar Mijozlaridir.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 03.03.2025 y.dan muddatsiz u bekor qilingunicha.

1.5. To‘lov - Aksiyaning ushbu qoidalari maqsadlarida to‘lov Tovarlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) uchun to‘lash maqsadida Mijozning Sherik oldidagi pul majburiyati ijrosini anglatadi. Humans tomonidan taqdim etiladigan aloqa xizmatlari va qo‘shimcha xizmatlar uchun to‘lov, pul o‘tkazmalari, shuningdek bankomatlarda naqd pul olish, elektron hamyonlarni to‘ldirish, valyuta, cheklar sotib olish, va h.k. mazkur aksiya maqsadlarida To‘lovlar hisoblanmaydi. Istisno hisoblangan va Aksiya shartlariga muvofiq kelmaydigan To‘lovlarning to‘liq ro‘yxati mazkur Qoidalarga oid 1-sonli llovada keltirilgan.

### 2. Aksiya bayoni

2.1. Aksiya davomida va mazkur Qoidalarga rioya qilgan holda, aksiya Ishtirokchilari Humans kartasidan foydalanib, amalga oshirilgan To‘lovlar uchun quyidagi miqdorda Keshbek oladilar:

2.2. Do‘konlarda offlayndagi To‘lov uchun 1%;

2.3. Onlayn do‘konlardan xaridlar uchun 1%.

2.4. Aksiyada Humansning sodiqlik Dasturida ishtiroki to‘xtatilmagan yoki bekor qilinmagan Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchilari qatnashishi mumkin.

2.5. Birgina Ishtirokchiga qo'shib berilgan Keshbekning maksimal miqdori cheklanmagan.

2.6. Aksiya o'tkazilayotgan Davrda har kuni Keshbek-hisobga Keshbek qo'shib beriladi.

2.7. Ishtirokchi Keshbekni Humans sodiqlik Dasturi shartlariga muvofiq, qat'iy olingan Keshbekni sarflashi va Keshbekni mablag'lar bilan ololmaydi.

### **3. Yakuniy qoidalar**

3.1. Mazkur Qoidalar Provayderning Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda mazkur Qoidalarni o'zgartirish yoki tegishli ma'lumotni oldindan Saytda joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabardor qilish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasidir. Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Humans kartasidan foydalangan holda Ishtirokchi tarafidan To'lovlarni amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga qarata taklif sanalgan Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini anglatadi.

3.3. Mazkur Qoidalarda tartibga solinmagan holatlarda Humans sodiqlik Dasturi Qoidalari amal qiladi.

1 – ILOVA. Keshbek qo'shib berilmaydigan To'lov-istisnolari ro'yxati

Nomlar	Ta'rifi
Pul o'tkazmalari	Pul mablag'lari yoki shaxsga yoki hisobga etkazib beriladigan tranzaksiya. Mazkur tranzaksiyalar yuzma-yuz emas, balki, masalan, Internet orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarni o'z ichiga oladi.
Moliyaviy muassasalar – savdo-sotiq va xizmatlar	Moliyaviy muassasalarida tovarlar yoki xizmatlar xarid qilish. Cheklar va boshqa moliyaviy mahsulotlar, reklama tovarlari, kredit olish uchun yig'ishlar va moliyaviy maslahatlashuv xizmatlari uchun to'lov, avvaldan to'langan kartalar hisobini to'ldirish tovarlar va xizmatlar sanaladi. Visa hujjatlariga ko'ra, MSS ham qarzlarni, qarzlarni yoki kredit karta balansini moliya muassasasida karta egasi tomonidan to'lash uchun ishlatilishi kerak. Shu bilan bitga MSS mikromoliyaviy tashkilotlar xizmatlarini to'lashda qo'llaniladi.
Kvazi-Kesh – Moliyaviy muassasalar	Cheklar, xorijiy valyuta sotib olish, elektron hamyonlarning to'ldirilishi va moliyaviy muassasalarda boshqa kvazi-kesh operatsiyalari.
Kvazi-Kesh – nomoliyaviy muassasalar	Cheklar, xorijiy valyuta sotib olish, elektron hamyonlar, savdo hisoblarining to'ldirilishi va nomoliyaviy muassasalarda boshqa kvazi-kesh operatsiyalar.
Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlar xizmatlari	Qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, obligatsiyalar savdo-sotiq qilinadigan nuqtalar, tovarlar va fondlar
Avvaldan to'langan kartani masofadan to'ldirish – Moliyaviy tashkilotlar	
Avvaldan to'langan kartani masofadan to'ldirish – Savdo nuqtasi	
Xizmatlar to'lovi – pul-mablag' o'tkazmalari	
To'lov operatsiyasi – moliyaviy muassasa	To'lov tranzaksiyasi Mastercard kartalari egalariga Mastercard hisobiga mablag'lar o'tkazish imkonini beradi. To'lov tranzaksiyasi Mastercardning avvalgi xaridlar tranzaksiyasini bekor qilmaydi va emitent tarafidan faollashtirilishi lozim.
To'lov operatsiyasi – sotuvchi	To'lov tranzaksiyasi Mastercard kartalari egalariga Mastercard hisobiga mablag'lar o'tkazish imkonini beradi. To'lov tranzaksiyasi Mastercardning avvalgi xaridlar tranzaksiyasini bekor qilmaydi va emitent tarafidan faollashtirilishi lozim.
Pul-mablag' o'tkazma – moliyaviy muassasa	
Kartadan kartaga pul o'tkazmasi – hisobga o'tkazish (mamlakat ichkarisida)	Oluvchi tarafda Mastercard, Maestro yoki Cirrus kartasiga o'tkazma hisobiga karta tutuvchi pul-mablag'lar (o'tkazmaning kredit qismi) olayotgan operatsiyalarni aniqlab beradi.
Kartadan kartaga pul	Oluvchi tarafda Mastercard, Maestro yoki Cirrus kartasiga o'tkazma

o'tkazmalari – hisobga o'tkazish (mamlakatlararo)	hisobiga karta tutuvchi pul-mablag'lar olayotgan operatsiyalarni aniqlab beradi.
Kartadan kartaga pul o'tkazmalari – hisobdan o'chirish	Karta tutuvchi kartadan Mastercardning boshqa kartasiga pul o'tkazish uchun foydalangan operatsiyalar (o'tkazmaning qoldiq qismi)
Avvaldan to'langan bankka oid bo'lmagan kartalar, hisoblarni to'ldirish	"Quyidagi xizmatlardan istalgan birini taqdim etadigan nuqta orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyani belgilab beradi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Karta egasi bo'lmagan boshqa shaxsga mablag ' etkazib beriladigan yoki taqdim etiladigan xizmat;</li> <li>• Agar ushbu mablag'lar qimor, tamaki va dori-darmon sotib olish va h. k. uchun ishlatilmasa, foydalanuvchi hisobini to'ldirish;</li> <li>• Avvaldan to'langan kartalarni to'ldirish."</li> </ul>
Qimor o'yinlar	Bankomat orqali tranzaksiyadan tashqari, i kazino, ippodromlar, karta salonlari, aviakompaniyalar va shunga o'xshash qimor o'yinlari va qimor faoliyati bilan uyg'unlikda muassasa tomonidan beriladigan stavka yoki pari uchun qo'llaniladigan stavka joylashtirish, lotereya bileti sotish olish, parvozda tijorat o'yinlari yoki fishkalar va yoki boshqa qimmatliklar xarid qilish kabilarni o'z ichiga oluvchi har qanday tranzaksiya.
Professional xizmatlar – hech bir yerda uncha tasniflanmagan	Tor doirada ixtisoslashgan xizmatlarni taklif etadigan an'anaviy "kasblar" bilan shug'ullanadigan va ko'pincha xodimlarga qo'shimcha yoki maxsus ta'lim yoki xizmat ko'rsatishni talab qiladigan nuqtalar. Ushbu MCC faqat savdo nuqtasi boshqa, aniqroq MCC tomonidan tavsiflanmagan taqdirda ishlatilishi kerak. Bunday nuqtalarga, masalan, ipoteka brokerlari, tadqiqot firmalari, moliyaviy rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar, grafika dizaynerlari, taklif etilgan ma'ruzachilar va o'qituvchilar, sud stnograflari, ko'chmas mulk baholovchilari va kimoshdi savdo uylari taalluqli.
Moliyaviy muassasalari – kassada naqd pullarning berilishi	Karta egasi naqd pul olish uchun kassada kartani ishlatganda, tranzaksiyalarni shaxsan aniqlash uchun ishlatiladi.
Moliyaviy muassasalari – avtomatik tarzda naqd pullarni yechish	"Xalqaro to'lov tizimlari mijozlarining bankomatlarida naqd pul va moliyaviy bo'lmagan operatsiyalarni aniqlash uchun foydalaniladi."
Moliyalashtirish bo'yicha tranzaksiyalar (MoneySend'dan tashqari)	
Humans'ning telekommunikatsion xizmatlari	Humans o'z mijozlariga ko'rsatayotgan aloqa xizmatlari va qo'shimcha xizmatlari